



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 16-avgust

413-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 13-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-maydagi “Charm-poyabzal, ipakchilik va gilamchilik tarmoqlarini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-181-son qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish haqida” 2024-yil 6-avgustdagi PQ-284-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 373-6-0-Q/24-son qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-maydagi “Charm-poyabzal, ipakchilik va gilamchilik tarmoqlarini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-181-son qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish haqida” 2024-yil 6-avgustdagi PQ-284-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 13-avgustdagi 373-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

### QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-maydagi “Charm-poyabzal, ipakchilik va gilamchilik tarmoqlarini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-181-son qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish haqida”, 2024-yil 6-avgustdagi PQ-284-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 13-avgustdagi 373-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-avgustdagi PQ-284-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-maydagi “Charm-poyabzal, ipakchilik va gilamchilik tarmoqlarini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-181-son qarori 2-bandining “a” kichik bandida:

quyidagi mazmundagi beshinchi xatboshi bilan to‘ldirilganligi:

“poyabzal, charm-attorlik mahsulotlari, furnitura, aksessuarlar, poyabzal qoliplari, poyabzal tagliklari, ustki qismlari, sun‘iy charm ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish maqsadida yangi uskuna va texnologiyalarni xarid qilishga tijorat banklarida kredit liniyalarini ochish uchun. Bunda kreditlar tadbirkorlarga 10 yil muddatgacha, 3 yillik imtiyozli davr bilan yillik 5 foiz (shundan 2 foizi bank marjasi) stavkada ajratiladi”;

beshinchi xatboshi oltinchi xatboshi deb hisoblanishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**